



## Namangan viloyatining 2023- yil yanvar-iyun oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

### I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 20 100,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 5,5 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022-yildagi narxlarga nisbatan 110,9 % ni tashkil qildi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,3 % ga yetdi.

#### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish


(yanvar-iyun oylarida)

	Ko'rsatkichlar	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2022- yil	2023- yil	
<b>I. YAHM</b>		<b>17 182,4</b>	<b>20 100,3</b>	<b>105,5</b>
shu jumladan:				
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	16 622,2	19 656,6	105,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	560,2	443,7	110,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>		<b>16 622,2</b>	<b>19 656,6</b>	<b>105,3</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	<b>9 559,3</b>	<b>11 012,7</b>	<b>105,5</b>
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	<b>3 881,1</b>	<b>4 533,7</b>	<b>105,7</b>
	sanoat	2 609,6	3 134,1	107,1
	qurilish	1 271,5	1 399,6	103,0
	Xizmatlar	<b>7 178,6</b>	<b>8 671,7</b>	<b>105,1</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 371,0	1 652,5	107,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	954,6	1 196,9	112,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	4 853,0	5 822,3	103,1

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi


(% da)

2022- yil yanvar-iyun



Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi (% da)


2023- yil yanvar-iyun



Yalpi hududiy mahsulotda 2023- yil yanvar-iyun oylari davomida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 216 034,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, shundan Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 13 700,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasida 181 796,1 mlrd. so‘mni, Namangan viloyatida esa 11 730,4 mlrd. so‘mni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotda 2023- yil yanvar-iyun oylarida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmdagi ulushi 48,6 % (2022- yil yanvar-iyun 49,9 %) ni tashkil etgan bo‘lsa, Namangan viloyatining ulushi 69,7 % (2022- yil yanvar-iyun 70,6 %) ni tashkil etdi.

**2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi**  
*(jamiga nisbatan % da)*



2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 69,7 %ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-iyun oyida – 70,6 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.



**Aholi jon boshiga nisbatan Yalpi hududiy mahsulot hajmi  
(ming so‘m)**

Ko‘rsatkichlar	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun
Yanvar-iyun	5 834,0	6 671,4

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHMni ishlab chiqarish  
(2023- yil yanvar-iyun)**

Ko‘rsatkichlar	mlrd. so‘m		Respublikada tutgan ulushi, % da
	O‘zbekiston Respublikasi	Namangan viloyati	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	469 619,0	20 100,3	4,3
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	444 432,9	19 656,6	4,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	25 186,1	443,7	1,8
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	444 432,9	19 656,6	4,4
<b>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</b>	<b>76 198,0</b>	<b>11 012,7</b>	<b>7,1</b>
<b>Sanoat (qurilish sohasini qo‘shtigan holda)</b>	145 909,4	4 533,7	3,1
sanoat	116 810,1	3 134,1	2,7
qurilish	29 099,3	1 399,6	4,8
<b>Xizmatlar</b>	209 403,6	8 671,7	4,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	33 268,5	1 652,5	5,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	35 273,8	1 196,9	3,4
boshqa xizmatlar	140 861,3	5 822,3	4,1

YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 105,4% (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 32,8 %), sanoatda – 107,1 % (15,9 %), qurilishda – 103,0 % (7,1 %), xizmatlar sohasida – 105,1 % ni (44,2 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,1 % (8,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa tarmog'ida 112,5 % (6,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,1 % dan (6,1 %) iborat bo'ldi.

**2022-2023- yil yanvar-iyunda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilga nisbatan % da)**

